

**TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich***Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi**sherzod.qayirma@gmail.com*

Annotasiya: *Ushbu maqola talabalarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari haqida bo'lib, ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh tuzish, yoshlarning etuklik davri batafsil tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Oila, familistik, jamiyat, imon-e'tiqod, nikoh, tarbiya, etuklik, ma'naviy muhit, axloq-odob, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, milliy qadriyatlar.*

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Jamiyatda oilaning o'z vazifalari mavjud bo'lib uning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga egadir. Har bir xalq yaxlit dunyoning bir bo'lagidir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga o'xshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi, Har bir millat va elatning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, har bir xalqning o'z ma'naviyati, milliy qadriyatlar va boy tarixiga egadir.

Shaxs tarbiyasi haqida to'xtalinar ekan, avvalo tarbiya oila o'chog'idan boshlanadi, shuning uchun bugungi kunda oila qurish arafasida turgan talaba yoshlarimizga oilaviy hayotga o'z munosabatlarini adekvat tasavvurlarini shakllantirish, ularga Islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni karim va hadisi shariflarda oila muqaddasligi to'g'risidagi chaqiruvlarga islom manbalarida oilani mustahkamlashga qanchalik chaqirilgan bo'lsa, uni buzilishidan shunchalik qaytarilganligini uqdirilib borishilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilish lozim.

Bugungi kunda talaba yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rgatib borish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhimdir. Chunki bola shaxsini shakllantirish uning tug'ilishidan boshlanadi. Shuning uchun ularni oila muqaddas ekanligi bola tarbiyasida ota-onaning o'zni va vazifalari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitib borish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar harakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini taxlil qilishga yordam beradi. Buning uchun ota - onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati o'zgarmog'i lozim. Milliy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashda, xalqning ma'naviy merosidan, ota-bobolarimizning pand-nasihatlari, tajribalari asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalash, ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha etib kelgan o'g'itlarini ongiga,

dunyoqarashi va shuuriga sindirib borilmog'i darkor. Shu bilan birga bolalarni xalq an'analariga o'rgatishi ota-onalarining majburiy vazifasidir.

Talaba yoshlar jamiyatimizning ijtimoiy faol bir bo'lagidir. Ularni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunimizning o'ta dolzarb masalasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun ham Respublikamiz Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" bo'yicha farmonida ham "Yoshlarga oid davlat siyosati"ni takomillashtirish alohida band sifatida kiritilgan. Unda ta'kidlanishicha, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikirlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasini takomillashtirish zarurdir. "Harakatlar strategiyasining" IV bo'lim 4.5. bandida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish haqida fikr bildirilib, mutasaddi tashkilotlarni bu masalani hal etishda faolligini oshirish masalasi ilgari suriladi.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nikoh va ota-onalik burchlari haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish mustahkam oilaning garovidir. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida nikoh va oila masalalari ayrim gumanitar fanlar mazmunida aks etgan bo'lib, oila, nikoh, bola tarbiyasi haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa pedagogika, psixologiya, fiziologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik fanlarida bu mavzuga alohida o'rin berilgan. Pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bobida aynan oila tarbiyasi asoslari mavzusi kiritilgan bo'lib, oila a'zolarinig o'zaro oilaviy munosabatlari, oilada bola tarbiyasi, ota-onaning burch va vazifalari, oila byudjeti haqida talabalarga ma'lumot beriladi. Bundan tashqari

pedagogika tarixi fanida ham sharq mutafakkirlarining hayoti va faoliyatlari o'rganilib boriladi. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida oila tarbiyasi to'g'risida qimmatli fikrlar berilgan. Bunday pur ma'no fikrlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Unsurul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida oila tariyasiga, nikoh masalasiga alohida o'rin qaratilgan. Asarning boshidan oxirigacha pand-nasihatlar berilgan bo'lib, har bir talaba-yosh uni mukammal o'zlashtirib olishi zarur.

Ayrim rivojlangan G'arb mamlakatlarida va ayrim Osiyo mamlakatlarida ham bir jinsli nikohga rasman ruhsat berilgan. Bunday nikoh mamlakatimiz va muqaddas dinimizda taqiqlangan bo'lsa-da, yoshlarimiz evropa telekanallaridan, internet saytlardan bu haqda ma'lumot olishmoqda. Yoshlarimizda nikoh va oila haqida mustahkam e'tiqodni shakllantirmay turib, mustahkam oila haqida gapirishimiz ham mumkin emas. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha ajrashishlarning 70% nikohning dastlabki besh yilida sodir bo'larkan. Xo'sh, bunga nima va kim sabab? Ko'p hollarda yoshlarning oila va nikoh haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmay turib turmush qurushi mustahkam oilalarning shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Biz bo'lajak pedagoglarni tayyorlar ekanmiz, ularni har tomonlama bilimli, jamiyat va oiladagi xodisa va vaziyatlardan chiqishga qodir, boshqalarga bu haqda tushuncha bera oladigan qilib tarbiyalashimiz zarur.

Talaba-yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini nazardan tutib, dastlabki oila va nikoh haqida boshlang'ich bilim beruvchi jamiyatning bo'g'ini oila va maktabda bu masalada e'tiborni kuchaytirish zarur. Oilada ota-onaning o'zaro

munosabatlari, maktabda pedagoglar o'rtasida muomala madaniyati o'g'il-qizlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilan olib borilgan so'rov-anketa natijalariga ko'ra yoshlarimizning ko'pchiligi oila qonunchiligini yo yaxshi bilishmaydi, yoki mutloq bexabar. Shaxsning oilaviy hayotga tayyorligi deyilganda, oila quruvchining: jismoniy (fiziologik), huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatdan etukligi tushuniladi. Masalan, tibbiyot xodimlarning ta'kidlashicha, shaxsning jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga bog'liq. Klinik kuzatishlar natijasiga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy etuklik (balog'atga etish) 12-14 yoshga, o'g'il bolalarda 14-16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu etuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida esa kechroq ro'y berishi mumkin. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilar bolalarda bo'ladigan fiziologik o'zgarishlarni o'z vaqtida payqashi va bu o'zgarishlar har bir o'smir yoshidagi bolada bo'lishini yotig'i bilan tushuntirishi lozim. Olimlarimiz shaxs etukligini quyidagi turlarga bo'ladilar:

Fuqarolik huquqiy yetuklik - bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga etish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu yosh 18 yosh deb belgilangan. Bu yoshda shaxs Kostitutsiyada belgilangan barcha huquqiy me'yorlar va majburiyatlarni anglab etadi va o'z xatti-harakatlariga javob beradi. 18 yoshga to'lgan shaxsni huquqiy etuklik davri, deb bejizga aytishmaydi;

Kasb-hunar etukligi - bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, shaxs bir tomondan qaysi bir kollej yoki liseyni, o'quv kurslarini bitirishi, ya'ni aniq bir ish turini bajarishi uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikma va malakaga egaligini bildiradi. Afsuski, odam biror bir o'quv yurtini tamomlagandan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha bir muddat ishlab ko'rish kerak bo'ladi va shundagina uning kasbiy etukligi haqida gapirish mumkin;

Psixologik etuklik - deganda shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni mantiqan anglab etishi va baholay olishi tushuniladi. Psixologik etuklik, shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik etuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, quvuch va tashvishlarida sherik bo'lish, o'zaro yordam

ko'rsatish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Psixologik etuklikning yana bir muhim mezon shaxsning oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, yondashuvining mavjudligi va zarur bo'lganda oila manfaati uchun o'z qarashlarini ko'pchilik oldida himoya qila olishidir.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini yodda saqlagan holda oilada va ta'lim muassasalarida bu masalaga jiddiy e'tibor berish zarur. Talabalarni nikoh tuzish va nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar haqida xabardor qilish ularni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Eng avvalo, talabani nikoh oldi tibbiyot ko'rigi bo'yicha (oliy malakali mutaxassis shifokor bilan) tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Oila Kodeksining 17- moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiyot ko'rigidan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanadi. Bu moddaning mohiyati shundaki, har bir turmush quruvchi shaxs kelajakda ota-ona bo'lishini bilgan holda o'zi tanlagan jufti bilan tibbiyot ko'rigidan o'tishi va o'zining sog'ligi haqida xabardor bo'lishi zarur. Tibbiyot ko'rigidan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning

bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi sof vijdon va ma'suliyatli munosabatni ifodalaydi. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oilaning har bir a'zosi sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy va ma'naviy masala ekanligini bugungi bozor sharoitida barcha jamiyat a'zolari tushunib etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda nikoh xaqidagi tasavvurlarini boyitish uchun auditoriyadan tashqari tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish va mutaxassislar, mahalla oqsoqollari, mudarrislarni taklif etgan holda uyushtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabani oilaviy hayotga axloqiy-psixologik tayyorgarligi, uning bir qator xulq me'yorlarini, talablarni, burchlarni anglab etganligidan dalolat beradi. Zero, oilaviy tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lmog'i zarur, busiz sog'lom jamiyatni borpo etib bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T., "Adolat", 2006, 16-17-betlar.
2. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. /Tuzuvchilar: N. A. Sog'inov, F. G'. Habibullayev. – Toshkent, 2016. – 38b.
3. Oila axloqi va odobi: Majmua. T., 2005. – 200 b.
4. Oila psixologiyasi. (Shoumarov G'. B. tahriri ostida). T., 2000.
5. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMIY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.
6. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.
7. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 874-879.
8. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 476-479.
9. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(2), 117-123.
10. Байджанов, Б. Х. (2020). Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари. *Science and Education*, 1(2), 514-519.

11. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференции*.
12. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференции*.
13. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS' VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In *Конференции*.
14. Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 69-72.
15. Sherzod, I. (2022). THE CONTENT OF THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF FAMILISTIC COMPETENCE IN STUDENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 40-46.
16. Ismoilov, S. D. (2022). OILA VA QADRIYAT. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 998-1003.
17. Dilshodovich, I. S. (2021). Ways To Increase the Effectiveness of Physical Education Classes in Secondary Schools. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 142-143.
18. Ismoilov, S. (2021). Developing A Valued Attitude Towards the Family in Students as A Topical Pedagogical Problem. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 91-93.
19. Ismoilov, S. (2021). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENT THINKING ACTIVITY IN SCHOOL AND FAMILY COOPERATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1209-1212.
20. Ismoilov, S. D. (2022). O ‘SMIR YOSHDAGI O ‘QUVCHILARDA OILAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS MUҲIM JIXATLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL*, 3(5), 96-100.
21. Ismoilov, S. (2021). SPECIFIC FEATURES OF FORMATION OF FAMILY VALUES IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 693-696.